



XORIYIY AMALIYOTDA CHET DAVLAT SUDLARI QARORLARINI TAN OLIISH VA IJROGA QARATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

SH.M.Masadikov

Ilmiy rahbar: "Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy
huquq fanlari" kafedrasini mudiri
yu.f.n., dots.

O'rayev Kamtarbek Alibekovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
"Xalqaro biznes huquq" magistr talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20925191>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 24-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 26-iyun 2026 yil

KEYWORDS

*xalqaro xususiy huquq, sud
qarorini tan olish, sud qarorini
ijro etish, o'zaro huquqiy
yordam, xalqaro shartnomalar.*

ABSTRACT

*Mazkur ishda chet davlat sudlari qarorlarini O'zbekiston
iqtisodiy sudlari tomonidan tan olish va ijro etish
masalalari yoritilgan. Amaldagi qonunchilik, xalqaro
shartnomalar hamda sud amaliyoti tahlil qilinib, mavjud
muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar
ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarida tashqi iqtisodiy
faoliyat ishtirokchilarining huquqiy himoyasini
kuchaytirishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy
takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan.*

Zamonaviy globallashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi turli davlatlar yuridik shaxslari va fuqarolari o'rtasida iqtisodiy nizolar sonining ortishiga olib kelmoqda. Bunday nizolarni hal etishda bir davlat sudining chiqargan qarori boshqa davlat hududida ijroga qaratilishiga zarurat tug'iladi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalasi xalqaro huquqning muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi savdo hamkorlari1 orasida Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi kabi davlatlar yetakchi o'rinni egallab kelayotganligidan kelib chiqib, ushbu paragraf iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Yevropa Ittifoqi kabi yirik davlatlar va mintaqaviy birlashma amaliyotidagi o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu paragrafda mazkur davlatlar va birlashma qonunchiligi hamda sud amaliyotida mavjud bo'lgan umumiy tendentsiyalar va farqlarni aniqlash, shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyatini ochib berishga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot jarayonida ko'rib chiqilayotgan davlatlarning protsessual qonunchiligi, xalqaro shartnomalari va sud amaliyoti o'rganiladi.

1. Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish. Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish tartibi Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksi2 (RF APK)ning 241-246-moddalari bilan tartibga solinadi. Ushbu normalarga muvofiq,

chet davlat sudining iqtisodiy nizo bo'yicha qarori Rossiya Federatsiyasi hududida, agar Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tan olinishi va ijroga qaratilishi mumkin.

Tan olish va ijroga qaratishning asosiy shartlari va mezonlari:

RF APK chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish uchun bir qator shartlarni belgilaydi. Jumladan:

qaror qonuniy kuchga kirgan bo'lishi kerak. Chet davlat sudining apellyatsiya shikoyati berish muddati o'tgan yoki shikoyat ko'rib chiqilib, qaror o'z kuchida qoldirilgan bo'lishi lozim; chet davlat sudi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalariga muvofiq ushbu ishni ko'rishga vakolatli bo'lishi kerak. Vakolatlilik masalasi nizoning subyektlari, joyi va huquqiy aloqalari asosida aniqlanadi;

Rossiya Federatsiyasi hududida xuddi shu subyektlar o'rtasida, xuddi shu predmet bo'yicha va xuddi shu asoslar bo'yicha Rossiya sudining qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lmasligi kerak;

chet davlat sudi qarori Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga zid bo'lmasligi kerak (ommaviy tartib prinsipi). Bu shart Rossiya huquqiy tizimining asosiy prinsiplari va suverenitetini himoya qilishga qaratilgan;

ishni ko'rish jarayonida taraflarning protsessual huquqlari buzilmagan bo'lishi kerak, xususan, javobgar o'z vaqtida va tegishli tarzda sud majlisi haqida xabardor qilingan bo'lishi lozim. Rossiya Federatsiyasi APK 2015-yilda majburiy ijro etishni talab qilmaydigan xorijiy sud qarorlari va xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish tartibini belgilaydigan yangi 245.1-modda bilan to'ldirilgan bo'lib, unga ko'ra3:

-tan olish shartlari: xorijiy sud va arbitraj qarorlari Rossiya Federatsiyasida, agar ularning tan olinishi Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasi va federal qonunida nazarda tutilgan bo'lsa, tan olinadi;

-qo'shimcha ish yurituvsiz tan olish: majburiy ijro etishni talab qilmaydigan bunday qarorlar Rossiya Federatsiyasida, agar manfaatdor shaxs tomonidan unga nisbatan e'tirozlar kelib tushmasa, hech qanday qo'shimcha ish yurituvsiz tan olinadi;

-e'tiroz bildirish muddati va tartibi: manfaatdor shaxs xorijiy sud yoki arbitraj qarori haqida xabar topganidan keyin bir oy ichida ushbu qarorni tan olishga nisbatan e'tirozlarni Rossiya Federatsiyasi sub'yektining arbitraj sudiga, manfaatdor shaxsning joylashgan joyi yoki yashash joyi bo'yicha, yoki uning mulki joylashgan joy bo'yicha, agar Rossiya Federatsiyasida yashash joyi, joylashgan joyi yoki mulki bo'lmasa, Moskva shahar arbitraj sudiga ariza berishi mumkin;

-ariza berish shakli: manfaatdor shaxsning xorijiy sud yoki arbitraj qaroriga qarshi e'tirozlar to'g'risidagi arizasi qog'ozda yoki elektron shaklda, shu jumladan elektron hujjat shaklida berilishi mumkin va manfaatdor shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanishi shart; arizaga qo'yiladigan talablar:

arizada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar: ariza berilayotgan arbitraj sudining nomi; xorijiy sudning nomi va joylashgan yeri yoxud hakamlar sudining yoki xalqaro tijorat arbitrajining tarkibi, uning joylashgan yeri;

manfaatdor shaxsning nomi, joylashgan yeri yoki yashash joyi;

manfaatdor shaxs tan olishga qarshi e'tiroz bildirayotgan xorijiy sud qarori yoki xorijiy arbitraj qarori haqidagi ma'lumotlar;

manfaatdor shaxsning xorijiy sud yoki arbitraj qarorini tan olishni rad etish to'g'risidagi iltimosnomasi, rad etish uchun asoslarni keltirgan holda, shuningdek, ushbu qaror Rossiya Federatsiyasida tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat sohasidagi manfaatdor shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini buzganligini asoslash;

ilovadagi hujjatlar ro'yxati;

arizaga ilova qilinadigan hujjatlar:

manfaatdor shaxs tan olishga qarshi e'tiroz bildirayotgan xorijiy sud qarorining yoki xorijiy arbitraj qarorining tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi.

hakamlik kelishuvi asl nusxasi yoki uning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi, agar manfaatdor shaxs xorijiy arbitraj qarorini tan olishga qarshi e'tiroz bildirayotgan bo'lsa;

ishonchnoma yoki boshqa hujjat, tegishli tartibda tasdiqlangan va arizani imzolagan shaxsning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat;

federal qonunda mol-mulk bilan bog'liq bo'lmagan da'vo arizasini to'lash uchun nazarda tutilgan miqdordagi davlat bojini to'laganlik to'g'risidagi hujjat;

ushbu qismning 1-3-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarning rus tiliga tegishli tartibda tasdiqlangan tarjimasi;

–boshqa qoidalar: ushbu moddaning 7-qismida ko'rsatilgan hujjatlarga Kodeksning 242-moddasi 6 va 7-qismlarining qoidalari ham qo'llaniladi;

–arizani ko'rib chiqish tartibi:

arizaning ko'rib chiqilishi ushbu bobning qoidalariga muvofiq, ushbu moddada belgilangan xususiyatlar bilan amalga oshiriladi;

arizaning ko'rib chiqish muddati arbitraj sudiga kelib tushgan kundan boshlab bir oydan oshmasligi kerak;

–shaxslarni jalb qilish: arizani ko'rib chiqishda arbitraj sudi huquq va majburiyatlariga nisbatan xorijiy sud yoki arbitraj qarori chiqarilgan shaxslarni ishda ishtirok etishga jalb qilishga haqli bo'lib, bu holda arizani ko'rib chiqish muddati uzaytirilishi mumkin. Ko'rsatilgan shaxslar, shuningdek, manfaatdor shaxs sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan bo'lsa-da, kelmaganliklari ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi;

–tan olishni rad etish asoslari:

xorijiy sud qarorini tan olishni rad etish: Arbitraj sudi xorijiy sud qarorini Kodeksning 244-moddasi 1-qismining 1–5 va 7-bandlarida belgilangan asoslarga ko'ra tan olishni rad etadi;

xorijiy arbitraj qarorini tan olishni rad etish: Arbitraj sudi xalqaro tijorat arbitraji qarorini tan olish va ijroga qaratishni rad etish uchun xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra xorijiy arbitraj qarorini tan olishni rad etadi, agar Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;

–shikoyat qilish tartibi: majburiy ijro etishni talab qilmaydigan xorijiy sud yoki arbitraj qarorini tan olish to'g'risidagi arbitraj sudining ajrimi, ajrim chiqarilgan kundan boshlab bir oy ichida okrug arbitraj sudiga kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, majburiy ijro etilishi talab etilmaydigan chet davlat sudlari qarorlarini tan olish tartib-taomillari Rossiya Federatsiyasida alohida maxsus norma bilan tartibga solinganligi holati bizga ushbu huquqiy tartibga solish vositasidan foydalanish amaliyoti huquqiy munosabatlarning rivoji jarayonida ob'yektiv zaruratga aylanishidan darak beradi.

Rossiya sudlari amaliyotida chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalalari har bir konkret holatning faktik holatlaridan kelib chiqib hal etiladi. Rossiya Oliy Arbitraj Sudi (hozirgi Oliy Sudning Iqtisodiy nizolar bo'yicha kollegiyasi) bu borada bir qator tushuntirishlar bergan.

Rossiyaning ko'plab davlatlar bilan ikki tomonlama huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalari mavjud bo'lib, ular chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish tartibini soddalashtirishi mumkin. Agar shartnomada RF APKda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor hisoblanadi.

Rus tadqiqotchisi N.Shebanovaning o'rganishlariga ko'ra, chet el sudida ko'rib chiqilgan qarorni Rossiyada tan olish va ijro etish har doim "ekzekvatura prinsipi" asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, chet el sud qarorlari Rossiya davlatining nazoratidan o'tishi kerak – Rossiya sudlari qarorni tan olishdan oldin uni qonuniy tekshiradi.

Rossiya protsessual qonunchiligiga ko'ra, chet el sud qarorini tan olish va ijroga qaratish uchun xalqaro shartnoma va (yoki) federal qonun bo'lishi kerak. Ya'ni, agar Rossiya va qaror chiqqan davlat o'rtasida maxsus xalqaro bitim bo'lsa, bunday qarorlar tan olinadi va ijro etiladi.

Rossiyada ushbu masala bo'yicha ikkita kodeksda (Arbitraj protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi) ham bir xil normalar bo'lsa-da, amaliyotda sudlar turlicha yondashadi. Jumladan:

Umumiy yurisdiksiya sudlari: faqat xalqaro shartnoma bo'lsa tan olishga ruxsat beradi. Agar shartnoma bo'lmasa – rad qiladi.

Arbitraj sudlari: ba'zan shartnoma bo'lmasa ham, "o'zaro tan olish (o'zarolik)" va "xalqaro xushmuomalalik (do'stona hamkorlik)" (принципы взаимности и международной вежливости) prinsiplariga asoslanib tan olishga qaror chiqargan holatlar mavjud.

Arbitraj sudlari bu prinsiplarni xalqaro huquqning umumtanolingan normalari deb hisoblaydi. Biroq, N.Shebanova bu yondashuvni tanqid qiladi, ya'ni xalqaro amaliyotda (boshqa davlatlarda) bunday prinsiplar xalqaro shartnoma o'rnini bosa olmaydi, deb hisoblaydi.

Shuningdek, boshqa davlatlar chet el sud qarorlarini faqat milliy qonunchilik asosida yoki maxsus xalqaro shartnomalar mavjud bo'lsa tan oladi. "O'zarolik" yoki "xalqaro xushmuomalalik" prinsipi, ularning fikricha, xalqaro huquqning majburiy normasi emas, shuning uchun u shartnomaning o'rnini bosa olmaydi.

Tadqiqotchi N.Shebanova Rossiya arbitraj sudlarining yuqoridagi amaliyotini qonunchilikka zid bo'lishi mumkin va bu Konstitutsiyaviy Sud qarorlari asosida qayta ko'rib chiqilishi va huquqiy jihatdan aniq belgilanishi lozim⁴, deb hisoblaydi.

2.Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish. Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalasi nisbatan murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xitoyning bu boradagi qonunchiligi asosan Xitoy Fuqarolik Protsessual Qonuni⁵ va Oliy Xalq Sudning tegishli sharhlari bilan tartibga solinadi.

Tan olish va ijroga qaratishning murakkabliklari va o'ziga xosliklari (o'zarolik prinsipi):

Xitoy amaliyotida chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning asosiy shartlaridan biri o'zaro tan olish prinsipi (o'zarolik) hisoblanadi⁶. Bu shuni anglatadiki, Xitoy sudlari faqatgina o'sha chet davlat sudlarining qarorlarini tan oladi va ijroga qaratadi, agar Xitoy sudlarining xuddi shunday qarorlarini o'sha chet davlat ham tan olsa va ijroga qaratsa. Agar o'zaro tan olish bo'yicha kelishuv mavjud bo'lmasa (masalan, ikki tomonlama shartnoma

asosida yoki amaliyotda o'zaro tan olish faktining isbotlanishi orqali), chet davlat sudining qarori Xitoyda tan olinishi va ijroga qaratilishi qiyinlashadi.

Bundan tashqari, Xitoy qonunchiligi chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish uchun quyidagi shartlarni ham nazarda tutadi:

- chet davlat sudi ushbu ishni ko'rishga vakolatli bo'lishi kerak. Vakolatlilik Xitoy xalqaro protsessual huquqi normalari asosida aniqlanadi;
- qaror qonuniy kuchga kirgan va ijro uchun taqdim etilgan bo'lishi kerak;

4 Проблемы правосудия и судебной власти. Признание и приведение в исполнение иностранных судебных решений в практике российских судов. Н.А. Шебанова. 2017. Сектор правовых проблем международных экономических отношений, Институт государства и права Российской академии наук.

<https://cyberleninka.ru/article/n/priznanie-i-privedenie-v-ispolnenie-inostrannyh-sudebnyh-resheniy-v-praktike-rossiyskih-sudov>

5 Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik Protsessual Qonuni. Civil Procedure Law of the People's Republic of China. http://www.npc.gov.cn/zgrdw//englishnpc/Law/2007-12/12/content_1383880.htm

6 China's New Civil Procedure Law On Foreign-Related Cases Comes Into Force. 4 January 2024. Authors: Gareth Hughes, Philip Rohlik, Tingting Wu. <https://www.debevoise.com/insights/publications/2024/01/chinas-new-civil-procedure-law-on-foreignrelated>

-chet davlat sudining qarori Xitoyning suvereniteti, xavfsizligi va jamoat tartibiga (ommaviy

tartib) zid bo'lmasligi kerak. Bu shart Xitoyning milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan;

-ishni ko'rish jarayonida Xitoy qonunchiligining asosiy protsessual kafolatlari buzilmagan bo'lishi kerak.

Xitoy sudlari amaliyotida chet davlat sudlari qarorlarini tan olish holatlari va tendentsiyalari:

O'zaro tan olish prinsipi tufayli Xitoy sudlari tomonidan chet davlat sudlari qarorlarini tan olish holatlari nisbatan kam uchraydi. Biroq, so'nggi yillarda Xitoyning xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalari kengayishi munosabati bilan bu borada tendentsiyalar o'zgarib bormoqda. Xitoy bir qator davlatlar bilan huquqiy yordam to'g'risida ikki tomonlama shartnomalar tuzgan bo'lib, bu shartnomalar chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish tartibini belgilaydi va osonlashtiradi.

Agar ikki tomonlama shartnoma mavjud bo'lmasa, o'zaro tan olish prinsipini isbotlash talab etiladi. Bu esa ko'pincha murakkab va uzoq davom etadigan protsess bo'lishi mumkin.

Xitoyning xalqaro huquqiy yordam bo'yicha shartnomalari:

Xitoy ko'plab davlatlar bilan sud topshiriqlarini bajarish, dalillarni olish va sud qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida shartnomalar tuzgan. Ushbu shartnomalar chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning huquqiy asosini yaratadi va o'zaro tan olish prinsipini qo'llash zaruratini kamaytirishi mumkin.

3.Turkiya Respublikasida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish. Turkiya Respublikasida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalasi "Xalqaro Xususiy Huquq va Protsessual Huquq

to'g'risida"gi 5718-sonli Qonun7 (Milletlerarası Özel Hukuk ve Usul Hukuku Hakkında Kanun - MÖHUK) bilan tartibga solinadi. MÖHUKning tegishli moddalari chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning shartlari va tartibini belgilaydi.

Tan olish va ijroga qaratish shartlari va asoslari:

MÖHUKga ko'ra, chet davlat sudining iqtisodiy nizo bo'yicha qarori Turkiya hududida tan olinishi va ijroga qaratilishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

-o'sha davlat bilan Turkiya Respublikasi o'rtasida o'zaro tan olish bo'yicha shartnoma mavjud bo'lishi yoki o'sha davlat qonunchiligida Turkiya sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish imkoniyati bo'lishi (de-fakto o'zaro tan olish) kerak. O'zaro tan olish prinsipi Turkiya huquqiy tizimida ham muhim o'rin tutadi;

-chet davlat sudi ushbu ishni ko'rishga vakolatli bo'lishi kerak. Vakolatlilik MÖHUK normalari asosida aniqlanadi;

qaror Turkiya jamoat tartibiga (kamu düzeni) aniq zid bo'lmasligi kerak. Bu shart Turkiya huquqiy tizimining fundamental prinsiplarini himoya qilishga qaratilgan;

-ishni ko'rish jarayonida javobgar tegishli tarzda sudga chaqirilgan bo'lishi va o'zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lishi kerak. Protsessual adolat prinsipi ta'minlanishi lozim;

-xuddi shu nizo bo'yicha Turkiya sudlarida allaqachon qonuniy kuchga kirgan qaror mavjud bo'lmasligi kerak.

-chet davlat sudining qarori Turkiya sudlarining mutlaq vakolatiga kiradigan masalaga taalluqli bo'lmasligi kerak.

Turkiya sudlari amaliyotida chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning o'ziga xos jihatlari:

Turkiya sudlari chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalasiga jiddiy yondashadi va yuqorida ko'rsatilgan shartlarning to'liq bajarilishini talab qiladi. O'zaro tan olish prinsipining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Agar ikki tomonlama shartnoma mavjud bo'lmasa, da'vogar o'sha chet davlat qonunchiligi va sud amaliyotida Turkiya sudlari qarorlarining tan olinishi va ijroga qaratilishini isbotlashi kerak.

Turkiya jamoat tartibi prinsipi ham chet davlat sudlari qarorlarini tan olishda muhim cheklovchi omil hisoblanadi. Agar chet davlat sudining qarori Turkiya huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga zid bo'lsa, uni tan olish rad etilishi mumkin.

Turkiyaning xalqaro shartnomalari va ularning roli:

Turkiya ko'plab davlatlar bilan huquqiy yordam to'g'risida ikki tomonlama shartnomalar tuzgan. Ushbu shartnomalar chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish tartibini belgilaydi va o'zaro tan olish prinsipini qo'llash zaruratini qisman kamaytirishi mumkin. Shartnomalarda ko'pincha tan olish va ijroga qaratishning soddalashtirilgan tartiblari nazarda tutiladi.

4.Yevropa Ittifoqida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish. Yevropa Ittifoqi (YI) doirasida iqtisodiy nizolar bo'yicha sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalasi a'zo davlatlar o'rtasida nisbatan soddalashtirilgan tartibga ega. Bu tartib asosan Yevropa Parlamentining va Kengashning "Sudlovlik, sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risida (fuqarolik va tijorat ishlarida)"gi 1215/2012-sonli Reglamenti8 (Brussels I bis Reglamenti) bilan tartibga solinadi.

Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlari o'rtasida sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning soddalashtirilgan tartibi:

Brussels I bis Reglamenti Ylga a'zo davlatlarning sudlari tomonidan chiqarilgan fuqarolik va tijorat ishlariga oid qarorlarni boshqa a'zo davlatlarda tan olish va ijroga qaratishning yagona tizimini yaratadi. Reglamentga ko'ra, bir a'zo davlatda chiqarilgan qaror boshqa a'zo davlatda hech qanday maxsus protsedurasiz tan olinadi.

Qarorni ijroga qaratish uchun manfaatdor taraf ijro etilishi kerak bo'lgan a'zo davlatning tegishli ijro organlariga murojaat qilishi kerak. Ijro tartibi ijro etuvchi davlatning qonunchiligi bilan tartibga solinadi, ammo a'zo davlatlar o'z qonunchiliklarini Reglamentga muvofiqlashtirishlari shart.

Reglamentda qarorni tan olishni rad etish uchun cheklangan asoslar mavjud, jumladan:

- jamoat tartibiga (ommaviy tartib) zid bo'lishi;
- javobgarga sud jarayoni haqida o'z vaqtida va tegishli tarzda xabar berilmagan bo'lsa (agar javobgar sudga kelmagan bo'lsa);
- qaror boshqa a'zo davlatda xuddi shu subyektlar o'rtasida, xuddi shu predmet bo'yicha chiqarilgan avvalgi qarorga zid bo'lsa;
- qaror YI a'zo bo'lmagan davlatning sudi tomonidan xuddi shu subyektlar o'rtasida, xuddi shu predmet bo'yicha chiqarilgan avvalgi qarorga zid bo'lsa va birinchi qaror ijro etuvchi a'zo davlatda tan olish shartlariga javob bersa;
- vakolatlilik qoidalarining buzilishi (ayrim istisnolardan tashqari)9.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlatlar sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning o'ziga xos jihatlari:

Ylga a'zo bo'lmagan davlatlar sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni Ylga a'zo davlatlarda tan olish va ijroga qaratish tartibi Brussels I bis Reglamenti bilan tartibga solinmaydi. Bunday hollarda, a'zo davlatlarning milliy qonunchiligi va ularning Ylga a'zo bo'lmagan davlatlar bilan tuzgan ikki tomonlama shartnomalari qo'llaniladi.

Har bir a'zo davlatning milliy qonunchiligida Ylga a'zo bo'lmagan davlatlar sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning o'ziga xos shartlari va tartiblari mavjud bo'lishi mumkin. Ko'pincha, bu tartiblar YI ichidagi tartibga nisbatan murakkabroq bo'ladi va o'zaro tan olish prinsipi, jamoat tartibi va protsessual adolat kabi umumiy xalqaro huquq prinsiplariga asoslanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan Rossiya, Xitoy, Turkiya va Yevropa Ittifoqi amaliyotida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning bir qator umumiy va farqli jihatlari mavjud.

Umumiy jihatlar:

Suverenitet va jamoat tartibi prinsipi: Barcha ko'rib chiqilgan davlatlar va birlashma chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishda o'zlarining suvereniteti va jamoat tartibi (ommaviy tartib) prinsiplariga ustuvor ahamiyat beradi. Agar chet davlat sudining qarori davlatning asosiy huquqiy prinsiplariga zid bo'lsa, uni tan olish rad etilishi mumkin.

Vakolatlilik talabi: Chet davlat sudi nizoning mohiyatini ko'rishga vakolatli bo'lishi talab etiladi. Vakolatlilikni aniqlash mezonlari har bir davlatning milliy qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq belgilanadi.

Protsessual adolat: Ishni ko'rish jarayonida taraflarning, xususan javobgarning protsessual huquqlari ta'minlangan bo'lishi kerak. Javobgar sud majlisi haqida o'z vaqtida xabardor qilingan va o'zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lishi lozim.

Qarorning qonuniy kuchga kirishi: Tan olinishi va ijroga qaratilishi so'ralayotgan chet davlat sudi qarori o'sha davlatda qonuniy kuchga kirgan bo'lishi kerak.

Farqli jihatlar:

O'zaro tan olish prinsipi (o'zarolik): Bu prinsip Xitoy va Turkiya amaliyotida muhim o'rin tutadi. Xitoy faqat o'z sudlari qarorlarini tan oladigan davlatlar sudlarining qarorlarini tan olishga moyil. Turkiya ham o'zaro tan olish bo'yicha shartnoma yoki de-fakto o'zaro tan olish faktini talab qiladi. Rossiya amaliyotida ham o'zaro tan olish muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, ayniqsa ikki tomonlama shartnoma bo'lmagan hollarda. Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlari o'rtasida esa Brussels I bis Reglamenti tufayli o'zaro tan olish prinsipi deyarli ahamiyatga ega emas.

Xalqaro shartnomalarning roli: Rossiya, Xitoy va Turkiya ko'plab davlatlar bilan ikki tomonlama huquqiy yordam to'g'risida shartnomalar tuzgan. Bu shartnomalar chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish tartibini soddalashtirishi mumkin. Yevropa Ittifoqi doirasida Brussels I bis Reglamenti a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ylga a'zo bo'lmagan davlatlar bilan munosabatlarda esa a'zo davlatlarning milliy qonunchiligi va ikki tomonlama shartnomalari muhim rol o'ynaydi.

Tan olish va ijroga qaratish protseduralari: Har bir davlat va birlashmada chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha o'ziga xos protseduralar mavjud. Yevropa Ittifoqi doirasida bu protsedura Brussels I bis Reglamenti tufayli nisbatan soddalashtirilgan. Rossiya, Xitoy va Turkiya esa o'z milliy protsessual qonunlariga muvofiq harakat qiladi.

Jamoat tartibini talqin qilish: Jamoat tartibi prinsipi barcha joyda qo'llanilgan bo'lsa-da, uning mazmuni va qo'llanilishi har bir davlatning huquqiy tizimi va ijtimoiy-siyosiy tuzilishiga qarab farq qilishi mumkin.

Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Rossiya, Xitoy, Turkiya va Yevropa Ittifoqi amaliyotida iqtisodiy nizolar bo'yicha chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning umumiy prinsiplari mavjud bo'lishiga qaramay, har bir davlat va birlashmaning o'ziga xos xususiyatlari ham saqlanib qolgan. O'zaro tan olish prinsipi, xalqaro shartnomalarning roli, milliy protseduralar va ommaviy tartibni talqin qilishdagi farqlar bu sohada yagona global yondashuvning mavjud emasligini ko'rsatadi.

Kelgusida bu sohada xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro tan olish prinsiplarini rivojlantirish va tan olish hamda ijroga qaratish tartib-taomillarini unifikatsiya qilish xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yanada barqaror va samarali bo'lishiga xizmat qiladi, xalqaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantiradi, transchegaraviy nizolarni adolatli va samarali hal etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, chet davlat sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish mexanizmlari davlatlarga qarab sezilarli farqlarga ega. Rossiya tizimi shartnomalarga asoslangan bo'lib, ayrim hollarda o'zaro tan olish va xalqaro xushmuomalalik prinsiplarini qo'llashi bilan ajralib turadi. Xitoyda o'zaro tan olish prinsipi markaziy o'rin tutadi va bu chet davlat qarorlarining tan olinishini murakkablashtiradi. Turkiya ham xuddi shunday tarzda bilateral shartnomalar va o'zaro tan olish talabini qat'iy qo'llaydi. Yevropa Ittifoqida esa

soddalashtirilgan, yagona va integratsiyalashgan tizim mavjud bo'lib, sud qarorlari maxsus protsedurasiz tan olinadi. Ushbu tizimlarning rivojlanishi xalqaro iqtisodiy muomalalarning barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish va davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlikni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksi.
2. Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik protsessual qonuni.
3. Oliy Xalq Sudining chet davlat qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha sharhlari.
4. Turkiya Respublikasining "Xalqaro Xususiy Huquq va Protssual Huquq to'g'risida"gi 5718-sonli Qonuni (MÖHUK).
5. Yevropa Parlamenti va Kengashining 1215/2012-sonli "Brussels I bis" Reglamenti.
6. Shebanova N. "Признание и исполнение иностранных судебных решений в России" – ilmiy sharh va tahlillar.
7. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha monografiyalar va maqolalar (umumiy manbalar).

